

Laboratoriya xonasi ishga tushdi

✘ Ma'lumki, "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti kafedralari o'quv laboratoriyalari joylashgan institutning Ye binosi o'tgan o'quv yilining 2 yarmida kapital ta'mirlash uchun vaqtincha yopilgan edi. Hozirda bu joyda ta'mirlash ishlari yakuniga yetmoqda. Bugungi kunda binoning Ye-21 xonasida "Traktorlar va avtomobillar" kafedrasida bajarilayotgan AIF 2/16 raqamli "Xorijiy universitetlardagi innovatsion yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligida muhandis kadrlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish" mavzusidagi loyiha doirasida foydalanish, shu jumladan bu joyda o'quv mashg'ulotlari va seminarlar o'tkazish, traktorlar gidravlik va elektron tizimlari o'rganish bo'yicha vertual laboratoriya ishlarini tashkil qilish maqsadida kompyuterlar bilan jihozlangan laboratoriya xonasi ishga tushirildi. Bu joyda jami 21 dona kompyuterlar o'rnatilgan bo'lib, ular internet tarmog'iga ulangan.

Kompyuter xonasidan elektron kafedra faoliyati bilan bog'liq ishlarni tashkil qilishda, kafedrada ishlab chiqilgan dastur asosida "Traktor va avtomobillar" fanidan kurs loyihalarini bajarishda, kafedrada o'qitiladigan fanlardan test nazoratlari o'tkazishda, talabalar bitiruv va mustaqil ishlari uchun ma'lumotlar to'plashda ham keng foydalanish ko'zda tutilgan. QXM fakulteti talabalari va magistrantlari ushbu xonadan fanlardan mustaqil ishlarini bajarish uchun foydalanishlari mumkin.

Traktorlar va avtomobillar kafedrasini mudiri Amonov M.O. axborot

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov